

MORFOLOGIYA O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining
Farg‘ona filiali akademik litseyi fransuz tili fani o‘qituvchisi*

Xolbekova Sayyoraxon Amanjonovna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining
Farg‘ona filiali akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Parpiyeva Shohsanam Olimovna

Annotatsiya: Morfologiya grammatikaning bir qismi bo‘lib, so‘zning shakllari, bu shakllarning hosil bo‘lish yo‘llari va so‘zlarning ma‘lum belgilar asosida guruhlarga, ya‘ni so‘z turkumlariga bo‘linishini o‘rganadi. Shu bois, morfologiyani o‘qitishda asosiy e‘tibor so‘zning tuzilishi, yasalishi, so‘z turkumlariga bo‘linishiga qaratiladi. Ma‘lumki, o‘quvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma‘lumotlar bilan boshlang‘ich sinflarda tanishadilar. So‘zlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe‘llar, olmoshlar, yordamchi so‘zlar kabi guruhlarga ajratish boshlang‘ich sinfdan ularga ma‘lum. Ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar avvalo boshlang‘ich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning mantiqiy davomi sanaladi. Shunga qaramasdan akademik litseylar va maktablarda ham morfologiyaning o‘qitilish vazifalarini ushbu maqola orqali qayta ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilarni so‘z yasashga, so‘zning yangi shakllarini hosil qilishda o‘rgatish, so‘z zaxirasini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirish.

Akademik litseylarda ham maktablarda ham morfologiyani o‘qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyat shundaki, keyingi bosqichda o‘rganiladigan «Sintaksis» bo‘limi bevosita morfologiya bilan bog‘langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo‘shimchalari garchand morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so‘z va so‘z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta‘minlovchi vosita sanaladi. Qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishning bevosita yordamchi so‘zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Maktabda morfologiyani o‘qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur bo‘limni o‘rganishda o‘z amaliy ifodasini topadi. O‘quvchi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarga yana murojaat qiladi va so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu bo‘limni

o'rganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinsip orfografiyaning yetakchi prinsipi sanaladi.

Shunday qilib, maktab morfologiya kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

- o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishda o'rgatish;
- so'z zaxirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;
- so'zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;
- imloviy savodxonlikni takomillashtirish;
- gap qurish va matn yaratish malakalari ustida ishlash;

DTSda ko'zda tutilgan talablar har bir mavzuni o'rganish jarayonida izchillik bilan amalga oshiriladi.

Morfologiya bo'limi ko'plab grammatik shakllarga egaligi bilan ajralib turadi, shuning uchun uni o'qitishga alohida yondashish lozim bo'ladi. Bu bo'limni o'rgatishda quyidagilarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

– So'z tarkibi bo'yicha tahlilni har bir mashg'ulotda amalga oshirib borish kerak, shundagina o'quvchi so'z shakllarini anglab, bir-biridan farqlab boradi. Masalan, fe'l turkumini o'rganishda quyidagicha tahlil qilib borish o'rinli bo'ladi. Masalan: Men o'qidim. Bu gap tarkibidagi o'qidim fe'lining morfologik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi: o'qi- fe'l asosi, -di zamon shakli, -m shaxs-son shakli. Bu so'zning morfemik tahlili esa quyidagi ko'rinishda bo'ladi: o'qidim – o'qi asos, -di sintaktik shakl yasovchi, -m sintaktik shakl yasovchi.

Bu kitob o'qildi. Gap tarkibidagi o'qildi fe'lining tahlili: o'qi- fe'l asosi, -l nisbat shakli, -di zamon shakli; O'qildi fe'lining morfemik tahlili: o'qi asos, -l lug'aviy shakl yasovchi, -di sintaktik shakl yasovchi. Tahlilning har ikki turi shu tartibda birgalikda olib borilsa, o'quvchining so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlari esga olinadi va fe'l yuzasidan egallagan bilimlari mustahkam bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'quvchi ancha oldin o'rganilgan bilimlarini esda saqlab turadi va tilning bir butun holda o'ziga xos sistema ekanligini anglab boradi.

- Morfologik tahlil doimiy ravishda o'tkazib borilishi kerak. Ma'lumki, 6-sinfda so'z turkumlariga oid bilimlar fe'l turkumini o'rganish bilan boshlanadi. Fe'l turkumini o'rganish bilan bog'liq holda morfologik tahlilga ham o'rgatish ham boshlanadi. O'quvchi fe'l haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'lgach, gap tarkibidan fe'lni topib uning harakat yoki holat fe'l ekanligini aniqlaydi. Keyingi mashg'ulotlardan esa fe'lning o'timli yoki o'timsiz ekanligini aniqlash ham qo'shiladi. Shu tartibda fe'l so'z turkumiga oid morfologik tahlil kengayib boradi. So'nggi mashg'ulotlarda o'quvchi berilgan gap tarkibidagi fe'lni aniqlab, uni quyidagicha tahlil qila olishi kerak: o'qiyapti – harakat fe'li, o'timli, sof fe'l, aniq nisbatda, xabar

maylida, hozirga zamon fe'li, sodda tub fe'l, III shaxs birlikda. Demak, fe'l turkumiga oid so'zni tahlil qilish shu turkumni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarning oxirida emas, balki dastlabki mashg'ulotdan boshlanishi kerak ekan. Shundagina morfologik tahlil ham, o'quvchilarning mazkur turkumga oid bilimlari ham ham mukammalashib boradi. Agar fe'l turkumini o'rganishda faqat fe'l so'z turkumiga oid so'zlar tahlil qilinsa, ot turkumini o'rganish boshlangach, ham fe'l turkumi, ham ot turkumi morfologik tahlilga tortiladi. So'z turkumlarini o'rganish kengaya borgach, morfologik tahlilning ko'lami ham kengayib boradi. Barcha mustaqil so'z turkumlari o'rganib bo'lingach, tahlil atroflicha amalga oshiriladi. Masalan, Doniyor ko'p kitoblarni o'qigan gapini morfologik jihatdan tahlil qilib ko'raylik. Doniyor– atoqli ot, shaxs nomi, bosh kelishikda, sodda ot. ko'p - daraja - miqdor ravishi, tub ravish, sodda ravish. kitoblarni – turdosh ot, aniq ot, sodda tub ot, narsa oti, bosh kelishikda, ko'plikda, tushum kelishigida. o'qigan– o'tgan zamon fe'li, bo'lishli, o'timli, xabar maylida, sof fe'l, aniq nisbatda, III shaxs birlikda, tub fe'l, sodda fe'l.

Demak, morfologik tahlil quyidan yuqoriga qarab murakkablashib borishi kerak. Shundagina morfologik tahlil so'z turkumlari yuzasidan olingan bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga, avval o'rganilgan mavzularni yodda saqlab turishga, so'z turkumlari haqida to'laqonli bilim hisil qilishga amaliy yordam beradi.

– Morfologiya bo'limini sathlararo bog'liqlikda o'qitish muhim talablardan biridir. Birinchidan, bu bo'limni orfografiya bilan bog'liq holda o'qitilish talab etiladi. Masalan, fe'l turkumini o'qitishda o'quvchilar quyidagi imloviy bilimlarga ega bo'ladi: yetakchi va ko'makchi fe'llar qo'shilmasi hamda qo'shma fe'llar ajratib yoziladi. Juft fe'llar va takroriy fe'llar chiziqcha bilan yoziladi. Ot turkumida ham o'quvchilar bir qator imloviy bilimlarni o'rganadilar: Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi, shuningdek korxon, mussasa, tashkilot, suv havzalari nomlarining yozilishi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Juft otlar va takroriy otlarning chiziqcha bilan yozilishi haqidagi bilimlar mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Ikkinchidan, bu bo'limni leksika sathi bilan bog'liq holda o'qitish yaxshi samara beradi. Masalan, Baxt har kuni ham kela bermaydi gapini olib ko'raylik. Gap tarkibidagi baxt so'ziga o'quvchilar e'tibori jalb qilinadi va ulardan shu so'zning sinonimini topish talab etiladi. O'quvchilar bu so'zga saodat, tole so'zlari sinonim bo'la olishini aytadilar. Shu o'rinda sinonimlik hodisasi yodga olinadi. Berilgan gap tarkibidagi qaysi so'z omonim bo'la oladi, qaysi so'z ko'chma ma'noda qo'llangan, qaysi so'z o'z antonimiga ega kabi savollar yordamida leksik bilimlar esga olib boriladi. Bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi. "Morfologiya" bo'limining muvaffaqiyatli o'qitilishini ta'minlovchi omillardan yana biri uning sintaksis bo'limi bilan qaydarajada aloqadorlikda o'qitilishidir. Har bir so'z turkumini o'qitishda o'rganilayotgan so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi va uning gapdagi sintaktik vazifasi aniqlab borilsa, o'quvchilar sintaktik bilimlarni egallashga tayyorlanib

boradilar. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi. Xullas, "Morfologiya" bo'limini o'qitishda yuqoridagilarga amal qilinsa, bu bo'limning muvaffaqiyatli o'qitilishiga erishiladi.

Morfologiya bo'limi ko'plab grammatik shakllarga egaligi bilan ajralib turadi, shuning uchun uni o'qitishga alohida yondashish lozim bo'ladi. Bu bo'limni o'rgatishda quyidagilarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

– So'z tarkibi bo'yicha tahlilni har bir mashg'ulotda amalga oshirib borish kerak, shundagina o'quvchi so'z shakllarini anglab, bir-biridan farqlab boradi. Masalan, fe'l turkumini o'rganishda quyidagicha tahlil qilib borish o'rinli bo'ladi. Masalan: Men o'qidim. Bu gap tarkibidagi o'qidim fe'lining morfologik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi: o'qi- fe'l asosi, -di zamon shakli, -m shaxs-son shakli. Bu so'zning morfemik tahlili esa quyidagi ko'rinishda bo'ladi: o'qidim – o'qi asos, -di sintaktik shakl yasovchi, -m sintaktik shakl yasovchi.

Bu kitob o'qildi. Gap tarkibidagi o'qildi fe'lining tahlili: o'qi- fe'l asosi, -l nisbat shakli, -di zamon shakli; O'qildi fe'lining morfemik tahlili: o'qi asos, -l lug'aviy shakl yasovchi, -di sintaktik shakl yasovchi. Tahlilning har ikki turi shu tartibda birgalikda olib borilsa, o'quvchining so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlari esga olinadi va fe'l yuzasidan egallagan bilimlari mustahkam bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'quvchi ancha oldin o'rganilgan bilimlarini esda saqlab turadi va tilning bir butun holda o'ziga xos sistema ekanligini anglab boradi.

- Morfologik tahlil doimiy ravishda o'tkazib borilishi kerak. Ma'lumki, 6-sinfda so'z turkumlariga oid bilimlar fe'l turkumini o'rganish bilan boshlanadi. Fe'l turkumini o'rganish bilan bog'liq holda morfologik tahlilga ham o'rgatish ham boshlanadi. O'quvchi fe'l haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'lgach, gap tarkibidan fe'lni topib uning harakat yoki holat fe'l ekanligini aniqlaydi. Keyingi mashg'ulotlardan esa fe'lning o'timili yoki o'timsiz ekanligini aniqlash ham qo'shiladi. Shu tartibda fe'l so'z turkumiga oid morfologik tahlil kengayib boradi. So'nggi mashg'ulotlarda oquvchi berilgan gap tarkibidagi fe'lni aniqlab, uni quyidagicha tahlil qila olishi kerak: o'qiyayapti – harakat fe'li, o'timli, sof fe'l, aniq nisbatda, xabar maylida, hozirga zamon fe'li, sodda tub fe'l, III shaxs birlikda. Demak, fe'l turkumiga oid so'zni tahlil qilish shu turkumni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarning oxirida emas, balki dastlabki mashg'ulotdan boshlanishi kerak ekan. Shundagina morfologik tahlil ham, o'quvchilarning mazkur turkumga oid bilimlari ham ham mukammallashib boradi. Agar fe'l turkumini o'rganishda faqat fe'l so'z turkumiga oid so'zlar tahlil qilinsa, ot turkumini o'rganish boshlangach, ham fe'l turkumi, ham ot turkumi morfologik tahlilga tortiladi. So'z turkumlarini o'rganish kehgaya borgach, morfologik tahlilning ko'lamini ham kengayib boradi. Barcha mustaqil so'z turkumlari o'rganib bo'lingach, tahlil atroflicha amalga oshiriladi. Masalan, Doniyor ko'p kitoblarni o'qigan gapini morfologik jihatdan tahlil qilib

ko'raylik. Doniyor– atoqli ot, shaxs nomi, bosh kelishikda, sodda ot. ko'p- daraja - miqdor ravishi, tub ravish, sodda ravish. kitoblarni – turdosh ot, aniq ot, sodda tub ot, narsa oti, bosh kelishikda, ko'plikda, tushum kelishigida. o'qigan– o'tgan zamon fe'li, bo'lishli, o'timli, xabar maylida, sof fe'l, aniq nisbatda, III shaxs birlikda, tub fe'l, sodda fe'l.

Demak, morfologik tahlil quyidan yuqoriga qarab murakkablashib borishi kerak. Shundagina morfologik tahlil so'z turkumlari yuzasidan olingan bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga, avval o'rganilgan mavzularni yodda saqlab turishga, so'z turkumlari haqida to'laqonli bilim hisil qilishga amaliy yordam beradi.

– Morfologiya bo'limini sathlararo bog'liqlikda o'qitish muhim talablardan biridir. Birinchidan, bu bo'limni orfografiya bilan bog'liq holda o'qitilish talab etiladi. Masalan, fe'l turkumini o'qitishda o'quvchilar quyidagi imloviy bilimlarga ega bo'ladi: yetakchi va ko'makchi fe'llar qo'shilmasi hamda qo'shma fe'llar ajratib yoziladi. Juft fe'llar va takroriy fe'llar chiziqcha bilan yoziladi. Ot turkumida ham o'quvchilar bir qator imloviy bilimlarni o'rganadilar: Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi, shuningdek korxon, mussasa, tashkilot, suv havzalari nomlarining yozilishi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Juft otlar va takroriy otlarning chiziqcha bilan yozilishi haqidagi bilimlar mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Ikkinchidan, bu bo'limni leksika sathi bilan bog'liq holda o'qitish yaxshi samara beradi. Masalan, Baxt har kuni ham kelavermaydi gapini olib ko'raylik. Gap tarkibidagi baxt so'ziga o'quvchilar e'tibori jalb qilinadi va ulardan shu so'zning sinonimini topish talab etiladi. O'quvchilar bu so'zga saodat, tole so'zlari sinonim bo'la olishini aytadilar. Shu o'rinda sinonimlik hodisasi yodga olinadi. Berilgan gap tarkibidagi qaysi so'z omonim bo'la oladi, qaysi so'z ko'chma ma'noda qo'llangan, qaysi so'z o'z antonimiga ega kabi savollar yordamida leksik bilimlar esga olib boriladi. Bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi. "Morfologiya" bo'limining muvaffaqiyatli o'qitilishini ta'minlovchi omillardan yana biri uning sintaksis bo'limi bilan qaydarajada aloqadorlikda o'qitilishidir. Har bir so'z turkumini o'qitishda o'rganilayotgan so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi va uning gapdagi sintaktik vazifasi aniqlab borilsa, o'quvchilar sintaktik bilimlarni egallashga tayyorlanib boradilar. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi. Xullas, "Morfologiya" bo'limini o'qitishda yuqoridagilarga amal qilinsa, bu bo'limning muvaffaqiyatli o'qitilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. T. : Musiqa. 2009.
2. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.
3. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi", 1992.
4. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili . T. , —Sharq, 2013.

5. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , —Iqtisodiyotl, 2012.
6. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO‘TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
7. N.Abdullayeva. O‘zbek va turk tillaridagi –mi yuklamasining qiyosiy talqini. O‘zbek tili va adabiyoti, 2014 – yil, 5 – son.

